

O‘ZBEKONA MILLIY TARBIYANING ASOSIY PRINSIPLARI VA METODLARI

Ilmiy rahbar: Samatov.X.U

Eshxoniv Elnur

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Samarqand filiali Kampyuter injiniringi fakulteti

KI 24-05 Guruh talabasi

Anatatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalqining milliy tarbiya tizimi, uning asosiy prinsip va metodlari yoritilgan. Oila, jamiyat va ta’lim muassasalari orqali yoshlarga beriladigan tarbiyaning ma’naviy-axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: xulq, ahloq, odob, tarbiya, ma’naviyat, madaniyat, axloqiy normalar, milliy tarbiya, o‘zbek qadriyatlari, metodlar, hurmat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik.

Kirish

Har bir xalq o‘zining milliy taraqqiyot yo‘lida o‘ziga xos tarbiya tizimini shakllantiradi. Bu tizim ming yillar davomida hayot tajribasi, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar, madaniyat va tarixiy jarayonlar asosida rivojlanadi. O‘zbek xalqi ham o‘zining boy madaniy merosi, qadimiy tamaddunlari, ma’naviy qadriyatlari va odob-axloq me’yorlari asosida mustahkam tarbiya an’analariga ega bo‘lgan. Xususan, o‘zbekona milliy tarbiya tizimi xalqimizning kundalik hayot tarzida, oila muhitida, mahalla tizimida, ta’lim muassasalarida va keng jamoatchilikda faol ravishda namoyon bo‘lib kelmoqda.

Milliy tarbiya – bu nafaqat bola yoki yoshlarning xulqini shakllantirish, balki jamiyatda insoniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, madaniyatli, ma’rifatli va vatanparvar shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladigan ijtimoiy institutdir. Bugungi tez o‘zgarayotgan, globallashuv tobora chuqurlashayotgan davrda milliy tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki globallashuv sharoitida milliylik, o‘zlikni anglash, madaniy identitetni saqlash singari tushunchalar tobora dolzarb tus olmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy tarbiyani faqat an’anaviy doirada emas, balki uni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishni ham taqozo etadi. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, jumladan,

ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar ham aynan yosh avlodga milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy poklik, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdirishni asosiy maqsad qilib qo'yimoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi ham aynan ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va o'z xalqiga sadoqatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbekona tarbiya tizimi nafaqat nazariy tushunchalar yig'indisi, balki hayotiy amaliyotda sinovdan o'tgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan tajriba maktabidir. Bu tizim orqali bolalarga nafaqat bilim, balki odob-axloq, insoniylik, o'zaro hurmat, vatanparvarlik, jamoaviylik kabi fazilatlar singdiriladi.

Asosiy qism

O'zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari uzoq tarixiy tajribaga ega bo'lib, bu qarashlar asrlar davomida shakllanib, jamiyatda shaxsni yetuk inson etib voyaga yetkazishda muhim rol o'ynagan. O'zbekona milliy tarbiya tizimi chuqur falsafiy, axloqiy va ijtimoiy negizlarga ega bo'lib, unda xalqning e'tiqodi, urf-odatlar, qadriyatlari, madaniyati, diniy dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Quyida o'zbekona milliy tarbiyaning asosiy prinsip va metodlariga alohida to'xtalamiz.

1. Hurmat, ehtirom va kattalarni ulug'lash

O'zbek xalqining tarbiyasida eng birinchi prinsip bu – kattalarga hurmat ko'rsatishdir. "Kattaga hurmat, kichikka izzat" degan maqol bejiz aytilmagan. Bolaga yoshligidanoq ota-onaga, buva-buviga, ustozlarga va umuman katta yoshdagi insonlarga hurmat bilan muomala qilish o'rgatiladi. Bu nafaqat axloqiy prinsip, balki oilaviy, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vositadir. Tarbiya jarayonida yoshlar "duo olish", "rizolik so'rash", "salom berish" kabi qadriyatlar asosida ulg'ayadi.

2. Halollik va poklik

Halollik o'zbek xalqining eng muhim axloqiy tamoyillaridan biridir. "Halol topib, halol yeyish" – bu nafaqat moddiy, balki ma'naviy poklikni ham anglatadi. O'zbek oilasida bolaga harom va shubhali narsalardan saqlanish, yolg'on gapirmaslik, boshqaning haqiga tegmaslik, halol mehnat bilan yashash o'rgatiladi. Bu qadriyatlar diniy va milliy an'analar bilan uyg'unlashgan holda yosh ongiga singdiriladi.

3. Mehnatsevarlik va tirishqoqlik

“Mehnat qilgan topadi” degan xalq maqoli har doim dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbek tarbiyasida bolaga bolaligidan uy ishlari, dehqonchilik, chorvachilik yoki kasb-hunar asoslari o‘rgatiladi. Bu esa bolada mustaqillik, mas’uliyat, sabr-toqat kabi sifatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, qiz bolalarga pazandalik, uy ro‘zg‘or tutish, o‘g‘il bolalarga esa hunar o‘rganish, ustoz-shogirdlik orqali amaliy tajriba berish qadimdan mavjud bo‘lgan.

4. O‘zlikni anglash va milliy g‘urur

O‘zbekona tarbiyada shaxsning o‘z xalqiga, tarixiga, tili va urf-odatlariga nisbatan faxr tuyg‘usini tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Yosh avlod o‘z ajdodlarining jasorati, ilm-fanga qo‘shgan hissasi, qadimiy madaniy merosi bilan faxrlanishi kerak. Shu yo‘l bilan u o‘zligiga sodiq, o‘z qadriyatlarini qadrlaydigan, g‘arbona madaniyat qarshisida o‘z pozitsiyasini yo‘qotmaydigan shaxs bo‘lib ulg‘ayadi.

5. Din va e’tiqod asosidagi tarbiya

Islom dini o‘zbek xalqining axloqiy hayotida chuqur ildiz otgan. Shuning uchun tarbiya jarayonida diniy-me’yoriy qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Bolaga halol-haromni farqlash, namoz o‘qish, duolarni yod olish, mo‘min-musulmonning axloqi qanday bo‘lishi kerakligi yoshligidan o‘rgatiladi. Bu esa insonning ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lishiga asos yaratadi.

6. Mahalla va jamoatchilik tarbiyasi

O‘zbek jamiyatining ijtimoiy hayotida mahalla muhim institut sifatida faoliyat yuritadi. Mahalla – tarbiyaning ijtimoiy muhitidir. Bu yerda jamoatchilik nazorati, kattalar nasihati, yoshlar faoliyati, to‘y-marosimlar, bayramlar va boshqa tadbirlar orqali yoshlar o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglab yetadi. Bu muhitda o‘zaro yordam, birdamlik, hamjihatlik, hurmat-izzat, kamtarlik kabi ijobiy xususiyatlar shakllanadi.

7. Shaxsiy namuna va ota-ona mas’uliyati

Eng samarali tarbiya – bu shaxsiy namuna orqali beriladigan tarbiyadir. Ota-ona o‘zining kundalik hayotdagi harakati, muomalasi, gap-so‘zi bilan farzandiga o‘rnak bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha kattalarning harakatini takrorlashadi. Shu bois tarbiyada

nasihatdan ko‘ra, amaliy namuna muhimroq sanaladi. Ota-ona farzand tarbiyasida o‘zining mas’uliyatini to‘liq his qilishi va unga vaqt ajratishi lozim.

8. Og‘zaki ijod va axloqiy namunalar

Xalq og‘zaki ijodi (ertak, doston, maqol, topishmoq) orqali ham milliy tarbiya amalga oshiriladi. Ertaklardagi ijobiy qahramonlar fazilatlari, maqollardagi hikmatli fikrlar, topishmoqlardagi zakovatni oshiruvchi elementlar – bularning barchasi tarbiyaning kuchli vositasidir. Ayniqsa, bolalikdan ertaklar eshitib ulg‘aygan bola axloqiy me‘yorlarni ongli ravishda anglay boshlaydi.

9. An‘anaviy marosimlar orqali tarbiya

To‘ylar, sunnat marosimlari, Navro‘z, hayit bayramlari, duolar, xayrli ishlar – bularning barchasi tarbiyaning ijtimoiy shakli hisoblanadi. Bu marosimlar orqali yoshlar jamiyat hayotiga faol jalb qilinadi, mehnatga, tartib-intizomga, odobga, birlik va hamjihatlikka o‘rgatiladi. Har bir milliy tadbir yosh avlodga qadr-qimmat, sabr-toqat, mehmondo‘stlik va bag‘rikenglikni singdiradi.

Turli xalqlar madaniyatida odob-axloq mezonlari o‘ziga xosdir. O‘zbek xalqidagi odob-axloq mezonlarining tarkib topishida diniy e‘tiqod, jamiyatning siyosiy-iqtisodiy holati, xalqning turmush tarzi, tabiiy-iqlimiy sharoit va boshqa shu kabilar ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli, Jamiyat o‘zgarishiga bog‘liq ravishda odob mezonlari ham o‘zgarib boradi.

O‘zbek xalqining odob-axloq qoidalari ko‘rinishlari juda ham ko‘p. Bu odob-axloq qoidalarni mazmunan quyidagilarga ajratish mumkin:

- jamoat orasida o‘zini tutish qoidalari;
- xushmuomalalik odobi;
- yoshga qarab muloqatda bo‘lish (kattalarni xurmat, kichiklarni izzat, tengdoshlarga nisbatan samimiy munosabat) talablari;
- salomlashish, so‘rashish qoidalari;
- ovqatlanish, dasturxon oldida o‘zini tutish mezonlari;

- kundalik turmush tartibi (erta turish,..);
- kiyinish, kiyim tanlash me'yorlari;
- orastalik bilan bog'liq talablar;
- mehmon kutish va mezbonlik ododbi;
- mehnat qilish va mehnatga munosabat odobi va boshqalar.

Oilada tarbiya orqali odob-axloq mezonlari bolalarga singdirilib borilar ekan, bu “o'zbekchilik”, “odamgarchilik”, “yaxshi”, “yomon”, “mehr-oqibat” tushunchalarini anglatib borish va “yaxshi odam”, “yomon odam” obrazi me'yorlarini tushuntirish orqali amalga oshirilgan. Kattalarga hurmat, ota-onalarni qadrlash, ularga bo'ysunish, kamtarlik, boshqalar dardiga hamdardlik, qat'iyatlilik, bir so'zlilik kabi insoniy xislatlarni tarbiyalash o'zbek xalqining “odamgarchilik” – ma'naviy-axloqiy kodeksiga kiritilgan.

Milliy muhit bolalarning psixik rivojlanishining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni bolalarning ma'naviy ulg'ayish jarayonida idrok qilinayotgan

ma'lumotlarni kategoriyalashtirish milliy tus oladi. Ob'yektlarni kategoriyalashtirishning milliy xususiyati, ayniqsa, maktabgacha yoshda bo'lgan

bolalarda kuchli bo'ladi. Ya'ni bolalar o'zbeklarda “yaxshi” va “yomon” kategoriyalar haqida tushunchaga, malumotga ega bo'ladilar. O'zbek ahloqida “yaxshi” xulqlarga: kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik, o'z qarindoshlariga mehribonlik, odobli bo'lish, xushmuomalalik, tejamkorlik, xalollik va h.k..., “yomon” xulqlarga: g'iybat, ig'vo, chaqimchilik, qo'rslik, o'g'irlik, birovning haqida hiyonat, ota-onalar hamda boshqa katta yoshlikishilarga hurmatsizlik va hokazolar kiritilgan. Bundan tashqari, “halol” va

“harom” kategoriyasi bo'yicha ham narsa va hodisalarga baho berilgan, taqiqlangan hatti-harakatlarga doir islomiy tasavvurlar singdirilgan. Yosh ota-onalar milliy tarbiya an'analarni o'z ajdodlaridan o'rganadilar va farzandlariga o'rgatadilar.

O'zbek xalq milliy tarbiyasi an'analarda bolalarni oilada tarbiyalab borishga qaratilgan bir qator metod va vositalar yaratilgan. Tarbiya metodlari: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rgatish, mashq qildirish), iltimos, tilak, maslahat,

rag'batlantirish, jismoniy jazo va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Tarbiya vositalari esa bolalar o'yinlari choyxo'rlik, bolalar gapi, yig'llari, bolalarning kattalar bilan to'ylar, sayllar, marosimlarda qatnashishi, safarlarga chiqishi kabi tadbirlardir.

Ijtimoiy malakalarni singdirish metodlari ikki xil tarzda - verbal va noverbal shaklda amalga oshirilgan. Og'zaki usulga – uqtirish, tushuntirish, o'rgatish, maslahat, rag'batlantirish, tanbeh, qo'rqitish, jazolash kabilarni, amaliy tarbiya usullariga esa yuz va ko'z imo-ishoralari qo'l harakatlarini kiritish mumkin. Noverbal usulning eng samaralisi va keng tarqalgani namuna ko'rsatishdir. Ota-onalar va kattalarning bolalar oldida o'z xis-tuyg'u (emosiya)larini boshqara olish usulini ham kiritsak, o'rinli bo'ladi.

Tarbiya vositalari sifatida ertak, matal, latifa, nasihat, afsona, rivoyat, hikmatmaqol kabilardan foydalaniladi. Tarbiya matodlari bolalarning yoshiga mos tarzda qo'lanilgan. Kichiroq yoshda bo'lgan bolalarni tarbiyalashda namuna qilish va tushuntirish (taqlid, bolalar o'yinlari, choyxo'rlik) dank ko'proq foydalanilsa, o'smir yoshdagi bolalar maslaxat, yo'l-yo'riq ko'rstish (choyxorlik, bolalarning kattalar bilan to'ylar, sayllar, marosimlarda qatnashishi, safarlarga chiqishi jarayonida) orqali tarbiyalangan.

Milliy tarbiya bo'yicha tatqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, o'tkan asrning 60-70 yillari ota-onalari bola tarbiyasida ko'proq o'zi namuna bo'lib yoki boshqalarni namuna qilib ko'rsatishdan ko'proq foydalaniladi, ananalarida so'zdan emas, ko'proq, namuna va harakatlardan foydalaniladi. Milliy tarbiyaning an'anaviy xususiyatlaridan biri farzandning ota-ona oiladagi burchini bajarish, kattalarda esa ota-onalik burchini ado etishga bo'lgan intilishining kuchliligidir. Bunday hislatlar juda ko'p xalqlarga xos, lekin o'zbeklarda bu yorqinroq ko'zga tashlanadi. Olimlar keyingi paytlarda shahar oilalarida bu an'analarning susayib borayotganligini oila nuklerizasiyasi bilan bog'laydilar.

Professor I.S.Kon 3-6 yoshli o'g'il va qiz bolalarga xos o'yinni tahlil qilar ekan, qizlarga hos o'zaro g'amxo'rlik, qo'lab-quvatlash hamda o'g'il bolalardagi kuch ishlatish tug'ma xususiyatlarga bog'liqligini ta'kidlaydi. U o'xshash madaniyatlarda bola ijtimoiylashuv jarayonini kuzatar ekan, o'g'il va qiz bolalarga xos jinsiy xususiyatlar ko'proq tarbiya mahsuli ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbeklarda "o'g'il bola" so'zi "bir so'zli", "qatiyatli", "to'g'ri so'z", "qo'rqmas", "botir" degan ma'noni ham anglatadi. O'zbeklarning an'anaviy tarbiyasida o'g'il uchun

tag'alarning o'rni katta hisoblanadi. Barcha oilaviy marosimlarda tag'a boshchilik qiladi, agarda bola yetim qolsa tag'a o'z qaramog'iga olgan. An'anaviy o'zbek oilalarida qizlar tarbiyasi bilan, asosan, onalar shug'ullanadi. Keksalarning fikricha, qiz bola tug'ulishi bilan turmushga

tayyorlab boorish, onalar talabchan bo'lishi, qizlarni mehnatkash qilib tarbiyalashi lozim. "Qiz bola birovning xasmi", shuning uchun shirin so'z, iboli, hayoli, og'ir va vazmin qilib tarbiyalash kerakligi qizlar tarbiyasida yetakchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Shoniyoov K. "O'zbek xalqining shakllanish tarixi". T.: Fan, 2001.
3. Qodirov M. "O'zbek xalq pedagogikasi". T.: O'qituvchi, 2005.
4. Mahmudov N. "Milliy tarbiyaning zamonaviy talqini". T.: Ilm Ziya, 2018.
5. www.pedagog.uz – Pedagogika, tarbiya va ma'naviyatga oid maqolalar to'plami.
6. www.samdu.uz – Samarqand davlat universiteti nashrlari va ta'lim materiallari.